JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 3 - oktabr 221-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

# Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga asosan Paxtakor tumani hududidagi korxona va tashkilotlarda 2024-yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun 54 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

## QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi xodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 54 ta ish o‘rinlarini zaxiralash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-642-sonli “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2024-yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

**Shu jumladan:**

a) 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali, ota onalar uchun 7 foiz (26 kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta’lim tashkilotlarini kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (21 kishi);

v) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (1 kishi);

g) nogironlar uchun 3 foiz (3 kishi);

d) pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi);

y) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun, 7 foiz (1 kishi);

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yiladigan har bir korxona, tashkilot va muassasalarda kasblar va lavozimlar ro‘yxati keltirib o‘tilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga xabardor qilishi shart.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan

kechikmay xabardor qilinsin. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etilsin.

7. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy jarima solinadi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorida haq to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4227-son 1 bob, 2 bandi. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

10. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi v.b.** **A.Ashurov**

Paxtakor tuman hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
221-3-52-Q/23-son qaroriga
1-ilova

# Tuman hududida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish bo‘yicha maxsus komissiyasi

## TARKIBI

| № | F.I.Sh | | Lavozimi |
|---|---|---|---|
| 1. | Sh.Shodmonov | - | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi |
| 2. | A.Oltiyev | - | Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i komissiya raisi o‘rinbosari |
| 3. | A.Murunov | - | Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i |
| 4. | J.Hazratqulov | - | Tuman KQ va BK bo‘limi ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha BEK ofis bosh mutaxassisi, komissiya kotibi |

Paxtakor tuman hokimining
2023-yil 3-oktabrdagi
221-3-52-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Paxtakor tumani bo‘yicha 2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha**

**MANZILLI JADVAL**

| T/R | Topshiriq belgilangan korxona nomi | Korxonani INN raqami | Korxonada ishlovchilar soni | Jami band qilingan ish o‘rinlari soni | shu jumladan: | | | | | | | | | Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga | Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari | Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar | Nogironlar uchun | Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun | Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun | Odam savdosi qurboni uchun | Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun (20.03.1997 yil VM-153-son qarori) | 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga | Sil kasalligi | Onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo‘ladigan xatarli o‘simtalar | Jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklar | SPID | Moxov (lepra) kasalligi | Ruhiy kasalliklar |
| 1 | Paxtakor tumani tibbiyot birlashmasi | 201025491 | 748 | 10 | 4 | 2 | | 2 | 1 | 1 | | | | | | | | | |
| 2 | Jizzax viloyati narkologiya dispanseri | 200342494 | 215 | 2 | 1 | | | 1 | | | | | | | | | | | |
| 3 | Janubiy Mirzacho'l kanalidan foydalanish boshqarmasi | 201455535 | 220 | 2 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | |
| 4 | Paxtakor tumani 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206889481 | 123 | 2 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 5 | Paxtakor tumani 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206909850 | 113 | 2 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 6 | Paxtakor tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206877347 | 98 | 2 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 7 | Paxtakor tumani 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206887667 | 85 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 8 | Paxtakor tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206885836 | 82 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 9 | Paxtakor tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206885844 | 77 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 10 | Paxtakor tumani sport maktabi | 206885607 | 80 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 11 | Paxtakor tumani 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206880352 | 71 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 12 | Paxtakor tumani hokimligi "OBODONLASHTIRISH BOShQARMASI" | 201025570 | 72 | 1 | | | | | 1 | | | | | | | | | | |
| 13 | Paxtakor tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206885574 | 79 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 14 | Paxtakor tumani 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206885614 | 81 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 15 | Paxtakor tumani 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206877354 | 68 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 16 | Paxtakor tumani 5-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 205213414 | 50 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 17 | Paxtakor tumani 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206889410 | 55 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 18 | Paxtakor tumani 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206877330 | 68 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 19 | Paxtakor tumani 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 308072055 | 57 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 20 | Paxtakor tumani 4-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207035665 | 42 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 21 | Paxtakor tumani 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206877323 | 74 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 22 | Paxtakor tumani 2-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 205213421 | 55 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 23 | Paxtakor tumani 6-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 205923875 | 51 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 24 | Paxtakor tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206886748 | 61 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 25 | Paxtakor tumani 10-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 203558714 | 49 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 26 | Paxtakor tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206885582 | 53 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 27 | Paxtakor tuman davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi | 201025531 | 43 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 28 | Paxtakor tumani 13-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207005472 | 48 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 29 | Paxtakor tumani 9-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207036521 | 43 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 30 | Jizzax viloyat sil kasalliklari shifoxonasi | 206793183 | 44 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 31 | Paxtakor tumani 8-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207035658 | 31 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 32 | Paxtakor tumani 1-son maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207035673 | 29 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 33 | Paxtakor tumani 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 308105241 | 34 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 34 | Paxtakor tumani 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206886755 | 36 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 35 | Paxtakor tumani 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207052115 | 27 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 36 | Paxtakor tumani 7-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207035697 | 35 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 37 | Paxtakor tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi | 206905176 | 36 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 38 | Paxtakor tumani 3-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207052090 | 24 | 1 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| 39 | Paxtakor tumani 14-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 207052108 | 41 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| 40 | Paxtakor tumani 16-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti | 308351214 | 21 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | | | | |
| **40** | **Jami:** | **x** | **3319** | **54** | **26** | **21** | **1** | **3** | **2** | **1** | | | | | | | | | |